

O'QUVCHILARDA REFLEKSIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARINI TASHKILLASH PEDOGOGIK TIZIMI

Vapayeva Fazilat Shuhratovna

Andijon Davlat Pedagogika Instituti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari tizimga xos xususiyatlarni keng darajada qamrab olgan murakkab pedagogik tizim hisoblanadi. Chunki o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari nafaqat shaxsiy refleksiyani, balki mustabid sovet tuzumining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy tanazzulga yuz tutish omillari; sobiq sovet davlati milliy siyosatining inqirozi va millatlararo munosabatlardagi ziddiyatlar; O'zbekiston iqtisodida paxta monopoliyasi va uning Respublika aholisining ijtimoiy hayotiga salbiy ta'siri; O'zbekistonda ekologik vaziyatning yomonlashuvi haqida ob'ektiv tasavvurni o'quvchilarda shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan ko'pqirrali jarayon bo'lishi zarur.

Kalit so'zlar: pedagogik tizim, refleksiv ko'nikmalar, subyekt-obyekt munosabatlar, subyekt-subyekt munosabatlar.

Annotation. Processes of formation and development of reflexive skills in students organized in general secondary educational institutions is a complex pedagogical system that covers the characteristics of the system to a large extent. Because the processes of formation and development of reflexive skills in students are not only personal reflection, but also factors of political, economic and social decline of the authoritarian Soviet system; the crisis of national politics of the former Soviet state and conflicts in inter-ethnic relations; cotton monopoly in the economy of Uzbekistan and its negative impact on the social life of the population of the Republic; It is necessary to have a multifaceted process aimed at forming and developing students' objective perception of the deterioration of the ecological situation in Uzbekistan.

Key words: pedagogical system, reflexive skills, subject-object relations, subject-subject relations.

Аннотация. Процессы формирования и развития рефлексивных умений у учащихся, организованные в общеобразовательных учреждениях, представляют собой сложную педагогическую систему, которая в значительной мере охватывает характеристики системы. Потому что процессы формирования и развития рефлексивных способностей у школьников являются не только личностной рефлексией, но и факторами политического, экономического и социального упадка авторитарной советской системы; кризис национальной политики постсоветского государства и конфликты в межэтнических отношениях; хлопковая монополия в экономике Узбекистана и ее негативное влияние на социальную

жизнь населения республики; Необходим многогранный процесс, направленный на формирование и развитие у учащихся объективного восприятия ухудшения экологической ситуации в Узбекистане.

Ключевые слова: педагогическая система, рефлексивные умения, субъект-объектные отношения, субъект-субъектные отношения.

Kirish. Umumta'lim maktablari o'quvchilariga sobiq Ittifoqning O'zbekistonda amalga oshirgan bir tomonlama siyosati va uning oqibatlari hamda O'zbekistonning mustaqillikka erishish jarayonlaridagi mashaqqatlar va halqimizning tarixiy orzusi bo'lgan mustaqillik, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyati haqida ob'ektiv va keng miqyosda, izchil va uzviy tushunchalar berib borish ular da mustaqillikka erishishni orzu qilib yashab o'tgan buyuk allomalarimiz, ota-bobolarimizning hayoti, ushalmagan orzu-maqсадlari va ular qoldirgan meros haqida ob'ektiv tasavvurni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bizning fikrimizcha, o'quvchilarda reflektiv ko'nikmalarni shakllantirish va tizimli rivojlantirib borish jarayonlari samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim muassasasi rahbarlarining funktsional vazifalarini amalga oshirish jarayoni samaradorligi bilan uzviy bog'liq va aloqador bo'ladi. Chunki murakkab pedagogik tizim hisoblanayotgan reflektiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari nafaqat dars mashg'ulotlari, balki darsdan tashqari, sinfdan tashqari, maktabdan tashqari kabi mashg'ulotlar jarayonlarini, shuningdek, turli uchrashuvlar, davra suhbatlari va ko'pgina ma'naviy va ma'rifiy tadbirlarni ham qamrab olgan holda innovatsion murakkab pedagogik tizimni tashkil etadi.

Metodologiya. Demak, mazkur jarayonlar samaradorligini ta'minlash, pedagog xodimlar kasbiy kompetentligini rivojlantirish, o'zaro ob'ektiv munosabatlar xukm surishi uchun jamoada zaruriy shart-sharoitlarni, qulay ta'limiy muhitni yaratish, sub'ektlar faoliyatini muvofiqlashtirish, ta'lim muassasasi, mahalla va ota-onalarning uzviy va tahliliy-ijodiy hamkorliklarini ta'minlash zarur.

Shuningdek, reflektiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari samaradorligi birinchidan, mazkur jarayonda sub'ekt-ob'ekt (o'qituvchi-o'quvchi) munosabatlari o'rnida sub'ekt-sub'ekt munosabatlarning (sub'ekt –sub'ekt munosabatlarida nafaqat o'qituvchi, balki o'quvchi ham ta'lim-tarbiya jarayoni sub'ekti sifatida faoliyat ko'rsatadi) shakllantirish darajasiga bog'liq bo'lsa, ikkinchidan ta'limtarbiya jarayonlari sub'ektlaridan biri bo'lgan pedagog o'qituvchilarning kasbiy kompetentlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Shuningdek, eng asosiysi ta'lim-tarbiya jarayonlari sub'ekti hisoblanayotgan (o'z vaqtida ta'limtarbiya jarayoni ob'ekti bo'lgan) o'quvchilarda tarix haqiqati va tarixiy saboqlarni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojlarni shakllanganlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Demak, o'quvchilarda o'qish va o'rganish yo'nalishlarida zaruriy ehtiyojlarni shakllantirib va muntazam rivojlantirib borish uchun ular da o'quv motivlarni shakllantirish, tarixiy jarayonlarni o'rganish, tahlil qilish va eng asosiy omil

sifatida tarixiy haqiqatni tabiiy va ob'ektiv baholashga ularda qiziqish uyg'otish zarur.

Muhokama. O'quvchilarda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish samaradorligi ularning o'z refleksiv faoliyatlari natijalaridan qoniqish hosil qilishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, do'stona munosabatlarga asoslangan o'qituvchi-o'quvchi hamkorligi faoliyatini tashkil etish, ya'ni innovatsion jarayonlarni tashkil etish orqali sub'ekt-sub'ekt munosabatlarini ijodiylikini ta'minlashga bevosita bog'liq bo'ladi.

Refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida barcha o'quvchilarning fikrini o'rganish va takliflarini inobatga olish ixtiyoriy tarixiy voqea yoki xodisaning vujudga kelishi, uning salbiy yoki ijobiy oqibatlarini o'rganish va tahlil qilish jarayonlarida barcha o'quvchilar faolligini ta'minlashga xizmat qiladi. Barcha o'quvchilar uchun bunday qulay ta'limiy muhitni vujudga keltirish refleksiv ko'nikmalar shakllantirish jarayonlari sub'ektlaridan biri bo'lgan pedagog xodimlar kasbiy kompetentligi darajasiga bog'liq bo'ladi.

Demak, o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari samaradorligi nafaqat o'rganilayotgan ob'ektning mazmun-mohiyati va ahamiyati darajasiga yoki ularning faolligiga, balki mazkur jarayonni tashkil etishga mas'ul hisoblangan ta'lim muassasalari rahbarlari va mutaxassislarining o'z funksional vazifalari mazmun-mohiyatini to'g'ri tushunib etishi va uni amalga oshirish yo'nalishidagi kompetentligi darajasiga ham to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi.

Refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini tashkil etish hamda boshqarish ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, birinchisi ikkinchisini to'ldiruvchisi, ya'ni tashkil etish boshqarishga asos sifatida xizmat qiladi. Boshqaruv nazariyasida tashkil etish boshqaruvning asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi.

Boshqaruv nazariyasi asoschilari XX asrning boshlarida boshqaruvning asosiy funksiyalari sifatida: rejalashtirish; tashkil etish; farmoyish berish; muvofiqlashtirish; nazorat funksiyalarini ajratib ko'rsatgan bo'lib, boshqaruvni kelajakni ko'ruvchi, faoliyatni tashkillashtiruvchi, tashkilotni idora qiluvchi, faoliyat turlarini muvofiqlashtiruvchi, qaror va buyruqlarning bajarilishini nazorat qiluvchi kuchli qurol deb ataydi.

Adabiyotlarda "boshqaruv" maqsad yo'nalishida ob'ektni muvofiqlashtirish; maqsadga erishish uchun ob'ektga ta'sir etish; maqsadga erishish yo'nalishida tizimning tashkil etuvchilariga ta'sir etishni vertikal muvofiqlashtirish sifatida ham keltiriladi [1].

Mazkur fikrlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, tashkil etish boshqaruv funksiyasi sifatida ham, boshqaruv vositasi sifatida ham ta'riflanayotganligini ko'ramiz, shuningdek, menejment nazariyasida rejalashtirish, tashkil etish, motivlashtirish va nazorat funksiyalarini ajratilishi va ularni birinchi darajali deb hisoblash qabul qilinganligi ham yuqorida keltirgan fikrimizni tasdiqlaydi.

Natija. Shunday ekan, umumta'lim maktablarida tashkil etiladigan reflektiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida mazkur jarayon tashkilotchilari, rahbarlar, mutaxassislar va o'quvchilar ma'lum bir belgilangan munosabatda bo'ladilar va bu munosabatlar o'zaro ta'sir jarayonlarida amalga oshadi.

O'zaro ta'sir – bu inson faolligining ko'rinishi sifatida, muloqotning interfaol shakli va individ faoliyatining ma'lum bir turi sifatida mustaqil ahamiyat kasb etuvchi jarayon [2].

O'zaro ta'sir jarayonida muloqot vujudga keladi va bunda inson o'zini-o'zi anglaydi, o'z ehtiyojini, shaxsiy hayotiy tushunchalarini, faolligini namoyon etadi. Buning uchun inson o'zining qaysi tizimga va qaysi jamiyatga xosligini anglashi zarur [69, [3].

O'zaro ta'sir jarayonida ishtirok etayotgan inson nafaqat o'zini va shaxsiy xususiyatlarini, balki aniq holatni, vaziyatni ham o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi, bunda o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi sub'ektlarning rivojlanishi amalga oshadi, shuningdek, o'zaro ta'sir jarayoni ham rivojlanadi .

Insonlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir inson psixologiyasi va shaxsiy xususiyatlarini rivojlanishining eng asosiy omili bo'lib, mazkur jarayon ishtirokchilarining o'zaro teng harakatlari shaxslararo aloqalarning vujudga kelish sharti hisoblanadi.

O'zaro ta'sir jarayonida ishtirokchilar barcha yo'nalishlar bo'yicha teng darajada axborotlar bilan taminlanadi va ularda tushunchalar, shaxsiy fikrlar tug'iladi. Bunday o'zgarishlarning xususiyati – bu axborotlar almashinish yo'li bilan o'zaro ta'sir ko'rsatish natijasida qo'lga kiritilgan integrativ natijadir.

Axborotlar almashinish jarayoni samaradorligi har jihatdan rejalashtirish, tashkil etish, motivlashtirish va nazorat qilish jarayonlarida tashkilotchilar, rahbarlar, mutaxassislar va o'qituvchilar tomonidan to'plangan axborotlarning ishonchliligi va yangiligiga hamda axborotlarni qayta ishlash, ya'ni axborot tahlil funksiyasini amalga oshirish samaradorligiga bog'liq bo'ladi.

Axborot-tahlil funksiyasining asosiy vazifasi pedagogik tizimlar (pedagogik jarayon) to'g'risida uzluksiz ravishda axborotlar to'plash va ularni chuqur o'rganish hamda ob'ektiv baholashdan iborat. Bu vazifalarni bajarish asosida boshqaruv faoliyatining strategiyasi, rivojlanish omillari, bajarilishini tashkil etish va nazorat qilish yo'llari aniqlanadi. Shuning uchun, axborotlar nafaqat ishonchli, balki yangi va foydali bo'lishi ham zarur.

Shunday ekan, axborot-tahlil funksiyasini amalga oshirish reflektiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida muhim ahamiyatga ega. Chunki murakkab pedagogik tizim hisoblanayotgan reflektiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarida o'quvchilar faolligi hamda ularning hamkorlikdagi faoliyati samaradorligi tarix va tarixiy voqea yoki tarixiy xodisa haqidagi ma'lumotlar va axborotlarning aniqligi, ishonchliligi, ob'ektiv asoslanganlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Bir so'z bilan aytganda axborotlar olish, tahlil qilish va ob'ektiv baholash jarayonlarini qamrab oluvchi refleksiv faoliyat jarayonlari samaradorligi ko'p jihatdan axborotlarning asoslanganlik darajasi va amaliy ahamiyatiga bog'liq hisoblanadi.

Demak, refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari samaradorligi nafaqat o'rganiladigan tarixiy ob'ekt haqida axborotlar to'plash, balki o'quvchilarga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi sub'ektlar, ularning kayfiyati, munosabatlari, dunyoqarashi, tushunchalari va bilimi haqida ham axborotlar to'plash, tahlil qilish, ob'ektiv baholash va qayta ishlashning ob'ektivligiga ham bog'liq hisoblanadi. [4]

Xulosa. Shunday ekan, refleksiv ko'nikmalar shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari sub'ektlari haqida ham uzluksiz ravishda axborotlar to'plash va ularni chuqur o'rganish hamda ob'ektiv baholash zarur bo'lib, bu vazifalarni bajarish asosida innovatsion murakkab pedagogik tizim faoliyatini rivojlantirish strategiyalari belgilanadi. Shuning uchun, tarixiy voqea va xodisalarning ob'ektivligi, aniqligi va asoslanganlik darajasini ta'minlash bilan bir qatorda, ta'lim-tarbiya jarayoni sub'ektlari to'g'risida to'plangan axborotlar ham nafaqat ishonchli, balki yangi va asosli bo'lishi ham zarur.

Innovatsion murakkab pedagogik tizim komponentlari holati, ta'lim muassasasidagi mavjud shart-sharoitlar, o'zaro munosabatlar, jamoadagi psixologik muhit hamda o'quvchi va pedagogik xodimlarning qiziqishi, moyilligi, individual psixologik xususiyatlari, qobiliyatlari va imkoniyatlari, shuningdek, oilaviy shart-sharoiti va faoliyatlari to'g'risida axborotlar to'plash va tahlil qilish asosida ularda tarixni o'rganish, tahlil qilish va ob'ektiv baholashga qiziqishlar uyg'otishga yo'naltirilgan tadbirlarni tashkil etishda maqsadli-motivlashtirish funksiyasi muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullaeva Sh.A. Pedagogicheskie texnologii razvitiya poznovatel'nykh tvorcheskix sposobnostey mladshix shkolnikov: diss. Kand. Ped. Nauk. – T.: UzNIPI. 2005.-120 s.
2. Abulxanova K.A. Strategiya jizni. – M.: MЫSI, 1991. – 299s. 13.
3. Andreeva G.M. Sotsialnaya psixologiya. – M.: MGU, 1988. – 415s.
4. Xakimova Dildora Mashrabjonovna umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarga refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish jarayonlarini tashkil etish VA boshqarish 13.00.07 –Ta'lim menejmenti (pedagogika fanlari) Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi.